XALQ DEPUTATLARI BAG‘DOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-yanvar VII-4-21-11-152-K/25 Bag‘dod tumani

Bag‘dod tumani hududida joylashgan istirohat bog‘ini nomlash va davlat reestr bazasiga kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash sohasidagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish hamda samarali amalga oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, xalq deputatlari Bag‘dod tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 23-dekabrdagi 05-19-01-5973-sonli “Geografik obektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasi asos uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda mavjud istirohat bog‘i nomi 1-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Tuman Statistika bo‘limi (A.Maxmudjonov), Kadastr agentligi Farg‘ona viloyat boshqarmasi Bag‘dod tuman bo‘limi (U.Eshonqulov), Tuman Qurilish bo‘limi (Z.Xidirov) hamda tegishli mutasaddi davlat tashkilotlari amaldagi tartibda nom berilgan istirohat bog‘ini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazasini shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Ittifoq mahalla fuqarolar yig‘ini raisi (R.Xusanova)ga, tuman Yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi va tuman Obodonlashtirish boshqarmasi bilan hamkorlikda istirohat bog‘i bo‘yicha berilgan takliflar xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng istirohat bog‘i nomi qayd etilgan metall ko‘rsatkichlar o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

5. Belgilansinki, geografik obektlarning nomlari sohasidagi ishlarni moliyalashtirish mahalliy budjet mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

6. Mazkur qaror xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng “Bag‘dod hayoti” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Mazkur qaror ko‘rib chiqish va amaldagi tartibda munosabat bildirish uchun xalq deputatlari viloyat Kengashiga yuborilsin.

Kengash raisi SOLIYEV G‘ANIJON SHERALIYEVICH

Xalq deputatlari Bag‘dod tumani
Kengashining
2025-yil 30-yanvardagi
VII-4-21-11-152-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Bag‘dod tumanidagi mavjud istirohat bog‘i

T/r	Geografik obektning turi	Geografik obektning bog‘lanishi	Geografik obektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Istirohat bog‘i	Ittifoq MFY	nomsiz	Bag‘dod istirohat bog‘i	Qonun hujjatlariga muvofiq